

Mavzu: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar

O'quv savollari

1. O'qitishga texnologik yondashuv.
2. O'quv maqsadlari va vazifalarini loyihalash.
3. O'zlashtirish mahsuldor va izlanuvchan darajalariga mo'ljallangan pedagogik texnologiya
4. O'zbekistonda ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyaning muqobili
5. Pedagogik texnologiya asosida darsning uslubiy qo'llanmasini va texnologik kartasini tuzish

1. O'qitishga texnologik yondoshuv

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p karra ta'kidlanadi. Pedagogik texnologiyalarning o'zi nima va u an'anaviy ta'lim metodlaridan nimasi bilan farqlanadi?

Pedagogik nazariyalar jamlanmasi bo'lgan pedagogikada katta hajmdagi nazariy bilim va amaliy tajriba to'plangan. Ammo yigirmanchi asrning ikkinchi yarmiga qadar mashhur pedagoglardan birontasi ham izdoshlari uchun xuddi o'zlari singari mashg'ulotni yuqori darajada o'tkazishlariga imkon beradigan pedagogik yo'nalishni (tsiklni) ishlab chiqmagan. Sababi, balki, o'tmishdagi mashhur pedagoglarning metodlarida ko'proq pedagog shaxsi inobatga olingan bo'lsa kerak. Ularning izdoshlarida nimadir yaxshiroq chiqqan bo'lmasa, ammo umuman olganda natija asoschilarnikidek bo'lmagan.

"Bizning pedagogik, ishlab chikarishimiz, - yozgan edi A.S.Makarenko, - hech qachon texnologik mantiq asosiga qurilmagan, u doimo axloqiy tartibga asoslangan. Aynan mana shuning uchun ham bizda ishlab chiqarishning barcha muhim bo'limlari: texnologiya jarayonini, ish bajarilishini hisobga olish, yaratuvchilik (konstruktorlik) ishi, moslamalarni qo'llash, nazorat, ishga tushirish, yaroqsizga chiqarish degan tushunchalar yo'q".

"**Texnologiya**" atamasi deganda ashyo yoki yarim xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirish uchun holati, shakli, xossasi, xususiyatlarini o'zgartirish usullari majmuasi tushuniladi va u moddiy ishlab chiqarish sohasiga taalluqlidir.

Insonning ixtiyoriy faoliyat sohasining rivojini quyidagi tasvir bilan izohlash mumkin:



"Texnologiya yaratilguncha shaxsiy maxorat xukmronlik qilgan. Ertami, kechmi, shaxsiy maxorat mujassam ifodasi texnologiya bo'lgan "jamoa maxoratiga" o'z o'rnini bo'shatib beradi".

Shaxsiy maxorat	Umumiy texnologiya
1. Jarayon boshidan oxirigacha xodim tomonidan bajariladi.	1. Jarayon bo`laklarga ajratiladi, hap bir xodim o`z bo`lagini bajaradi
2. Jarayonga bog`liq bo`lgan barcha bilim va ikir-chikirlarni bilishi zarur.	2. Faqat o`ziga biriktirilgan jarayon qismi bilishi zarur
3. Barcha ishni o`zi bajarishi zarur.	3. Barcha ishni o`zi qilishdan ozod etuvchi "tayyor" ishlanmalar tatbiq etiladi
4. Jarayon davomli (o`zoq muddatli).	4. Jarayon birmuncha tezlashadi
5. Mahsulot sifatli.	5. Mahsulotning sifati past emas
b. Ichki tuyg`u, sezgi va tajribaga asoslanadi .	6. Ilmiy asoslangan hisob va bilim
7. Mahsulot ishlab chikaruvchi imkonlari bilan cheklanadi .	7. Mahsulot ayrim ishlab chikaruvchilarning imkoniyati bilan chegaralanmaydi. Ommaviy ishlab chikarishni uyushtirish mumkin .

Sanoatda texnik hujjatlar talablariga aniq rioya qilinib, ijrochining shaxsiga bog`liq bo`lmagan holda kafolatlangan natija beradigan minglab texnologik jarayonlar ishlab chiqilgan. Bunday texnologik jarayonning asosi bo`lib detalning ishchi chizmasi va yig`ma birliklar chizmasi xizmat qiladi. Ularning talablariga aniq rioya qilish detallarning o`zaro almashinuvchanligini ta`minlaydi, texnologik jarayonning takrorlanadigan qadamlari esa qayta tiklanadigan texnologik to`zilmani tashkil qiladi. Mana shuning uchun ham O`zbekistonda chet el texnologiyasi asosida ishlab chiqariladigan avtomobilning sifati Janubiy Koreyada ishlab chiqarilgan avtomobil sifatidan farq qilmaydi.

Sanoatda "yuksak texnologiyalar" iborasi bor. Ular, odatda, juda murakkab bo`ladi, katta sarmoyalar sarflanishini talab qiladi, fanning so`nggi yutuqlariga asoslanadi, xodimlardan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Shunday bo`lsada, ular mahsulotning yuqori sifati va raqobatbardoshligini, pirovard natijada salmoqli foydani ta`minlaydi. Pedagogik texnologiyani o`qitishdagi "yuksak" metodika qatoriga kiritish mumkin, ammo uning joriy qilinishi katta sarflarni talab qilmaydi. Ta`lim sifatining kaliti pirovard oqibatda alohida o`quv yurti va aniq o`qituvchi deydigan bo`lsak, pedagogik texnologiyani o`zlashtirish asosan, pedagoglarni o`qitishni talab qiladi.

Pedagogikada takrorlanadigan to`zilmani yaratish qiyin. Bunga o`quv (ta`lim-tarbiyaviy) vazifalarining turliligi, ta`lim mazmuni bo`laklari va o`quv materiali turlarining xilmaxilligi, ularni bilish faoliyati uslubining bir xilda namoyon bo`lmasligi va ko`plab boshqa omillar to`squinlik qiladi.

Pedagogik texnologiya XX asrning 70-80 yillarida AQSHda kashf qilingan va keyinchalik dunyoning ko`p mamlakatlariga tarqalgan. U YUNESKO dek nufo`zli tashkilot tomonidan tan olingan. YUNESKO pedagogik texnologiya o`zlashtirilishiga ko`maklashgan, masalan, 1996 yyunda Ierusalimda, keyin 1997 yilda Manila (Fillipin Respublikasi)da ta`lim innovatsiyalari va texnologiyalari bo`yicha xalqaro konferentsiyalari o`tkazilgan.

Pedagogik texnologiyalar eng tezkor ravishda Janubiy Koreya (M.V. Klarin, 1989) hamda Yaponiya, Singapur, Janubiy-Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlarida tajribaviy sinovdan o`tgan va joriy qilingan. Bu ta`lim sifati sezilarli darajada ko`tarilishining sabablaridan biri bo`lib o`quvchilar xalqaro konkurslarda birinchi o`rinlarni egallashi orqali namoyon bo`ldi.

Pedagogik texnologiyani o`zlashtirgan mohir pedagoglarga mazkur usulning an`anaviy usuliga ko`ra samarali ekanligi ma`lum. Bu esa maktab pedagoglari, o`rta

maxsus, kasb-xunar va oliy maktab professor-o`qituvchilari uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda pedagogik texnologiyani o`zlashtirish va amalda qo`llash zarurligini bildiradi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, talabalarni o`qitishni jadallashtirish" ko`zda tutilgan.

Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta`lim muammolariga oid ma`ruzalar, rasmiy xujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya", "ilg`or pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya" iboralari keng qo`llanilmokda. Ammo "pedagogik texnologiya" tushunchasi hali ham bir qolipga tushirilmagan, qomuslarda izohlanganicha yo`q, uning mazmunining yagona talqini ishlab chiqilmagan shuning uchun, iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko`pgina ta`riflari mavjud. Bo`larning orasida e`tiborga loyiqrog`i YUNESKOning ta`rifidir: "Pedagogik texnologiya - bu butun o`qitish va bilimlarni o`zlashtirish jarayonida o`z oldiga ta`lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo`yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o`zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo`llash va belgilashning tizimli metodidir".

Bu ta`rifdagi asosiy tushunchalar "tizimli metod" ekanligi ravshan, qolgan barcha so`zlar pedagogik texnologiyaning tizim sifatidagi tarkibiy qismlarni ifodalaydi. Aynan tizimli yondoshuv pedagogik texnologiyani o`qitishda boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta`lim maqsadlari, uning mazmuni, o`qitish va ta`lim berish metodlari, nazorat va natijalarni baholashni o`zaro aloqada va bir-biri bilan bog`liqlikda loyihalash - ko`pincha an`anaviy o`quv jarayonida etishmaydigan narsalardir. Ta`kidlash joizki, jarayon (texnologiya) deganda jarayonlarni amalga oshirish yo`riqlari haqidagi bilimlar va vositalar majmuasi hamda (ob`ekt)ni sifat o`zgarishiga olib keluvchi jarayonning o`zi ham tushuniladi.

Pedagoglarning faoliyatida ba`zida "pedagogik texnologiya" tushunchasi bilan foydali bo`lsada avval o`zlashtirilgan va texnologik qurilmagan o`qitish uslublari ataladi. Aslini olganda, pedagogik texnologiya - bu o`qitishda o`ziga xos bo`lgan yangicha (innovatsiya) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muxandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko`chirilgan tasviri, ta`lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.

O`qitish nazariyasi, metodikasi va texnologiyasining nisbatlari qanday? G.I. Sarantsev ushbu savolga quyidagicha javob bergan: "Metodika nazariy qoidalarni amaliy hodisalar tengligiga o`girish bilan belgilanadi. O`qitish texnologiyasi o`qitish jarayonidagi barcha jarayonlarning o`zaro bog`liqligini batartib tashkil qilish, bosqichlar ketma-ketligi, ularni amalga oshirish shartlarini mavjud imkoniyatlar bilan bog`lashi zarur va shunga o`xshash. Jarayonlarni (xodisalarni) texnologiyalashning bosh maqsadi belgilangan (loyihalashtirilgan) namunadagi mahsulotni olishdir.

Fanda o`qitish nazariyasi ushbu fanni o`qitish bo`yicha metodik tizimlarning faoliyat qonuniyatini ochib beradi, metodika ularning tadbqiqini, texnologiya esa ushbu modelni amalga oshirish usullarini ishlab chiqaradi. Masalaning bunday qo`yilishida texnologiyannng vazifasi maqsadlarni tashxislash va sharoitlar (uslublar, shakllar, vositalar, bog`lanishlar) ni aniqlash, ya`ni belgilangan maqsadga erishishga imkon beruvchi jarayonlarni loyihalashga olib keladi. Shunday qilib, texnologiya nazariya va metodikani inkor etmoqda, balki u keyingilarga (nazariya va uslubiyotga) asoslanadi va samaradorligi ularning ravojlanish darajasiga bog`liq".

O`quv tarbiyaviy jarayon texnologiyasi pedagogik majmuaning tizimlantiruvchi bo`lagi deb tushuniladi. Faqat texnologiya barcha pedagogik tizim bo`laklarini birlashtiradi. 1-rasmda berilgan tasvirda ushbu fikr yaqqol ko`rinadi.


Pedagogik texnologiyani tushuntirishning jiddiy ko`rinishini keltiramiz:

- maqsadning tashxisli tasviri;
- pedagogik jarayonlarning qayta takrorlanishi (shu jumladan bosqichlar bo`yicha ko`rsatmalar, ularga mos o`quv maqsadlari, o`quvchi va o`qituvchining faoliyatlari);

- pedagogik natijalarning qayta takrorlanishi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya tashxis etilgan maqsadga erishish uchun qat'iy yo'naltirilgan o'quv jarayonlarning qayta takrorlanuvchi metodikasidir, yoxud pedagogik texnologiya o'quv jarayonining texnologiyasi sifatida qaraladi.

To'planning mazmuni va jarayoni bo'yicha malakali mutaxassislar guruhi ishonchli o'qitish tizimini texnologik yondoshuvlar asosida loyihalashtirgan va tayyorlagan taqdirda o'rta miyona pedagog ham yuqori natijalarga erishishi mumkin.



Texnologik yondoshuvda o'quv ashyolari aniq qayd etilgan o'quv maqsadiga mos holda ishlab chiqilgan, maxsus qismlarga (modullarga) ajratilgan, o'quv muqobil yo'llarini ko'zda tutadi, har bir qismi test va qo'shimcha tuzatishlar kiritish bilan hamohang bo'ladi. O'quv ishlari yuqori natijalarga erishishga qaratilgan, bunday yo'naltirilganlik mashg'ul bo'lish, musobaqalashish va o'zaro yordamlashish tushunchalaridan holi emas. Shu bilan birga u butun ta'lim jarayoniga reproduktiv ko'rinish beradi. Shuning uchun u eng zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatishda ko'proq samara beradi. V.I.Orlov (1998) shunday deydi: "Hozirgi paytda reproduktiv o'quv jarayoniga ikkinchi darajali deb qaralmoqda, holbuki, odamlar butun hayoti davomida faqat reproduktiv mehnat bilan banddir, aks holda u o'zi eng zarur narsalar bilan ta'minlay olmas edi. Tarbiyalanuvchilar faoliyatida reproduktivlik asosiy o'rinni egallashi lozim va shunday sharoitdagina eng zarur bilimlar hajmini egallashi va ijod uchun munosib sharoit yaratishi mumkin".

Shuni ta'kidlash joizki, ma'lum sharoitlarda bir o'quv mavzusini reproduktiv usulda ikkinchisini - izlanuvchan-tadqiqot usulida o'zlashtirish qulaydir. Shunday qilib, reproduktiv o'qish bosqichida pedagogik texnologiyani o'zlashtirish izlanuvchan-tadqiqot usuliga asoslangan pedagogik texnologiyaga o'tishning mustahkam tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

Mashhur qo'shiqda aytilgan iboradek - "reproduktiv o'qishga g'ururli qaramang". Faqat boshlang'ich davrda mahsuldorlik bosqichiga asoslangan, murakkab bo'lmagan o'zlashtirish jarayonini egallay borib, yuqoriroq bo'lgan izlanuvchan-tadqiqot yondashuviga o'tish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, pedagogik texnologiya doirasida evristik, ijodiy yondoshuvga imkon yaratiladi, ushbu fikr kelgusi bilimlarda namoyish etiladi.

Hozirgi paytda O'zbekiston ta'lim tizimida aniq ziddiyat paydo bo'lgan: bir tomondan talaba va o'qituvchilarning bilim olish camaradorligini oshirish manfaatida pedagogik, texnologiyani o'zlashtirish zarur hamda ushbu pedagogik texnologiya pedagogik innovatsiya istiqbolida foydalaniladi, ikkinchi tomondan, vaqt bilan hamohang ravishda pedagogika fanining so'nggi natijalarini ham o'zlashtirib borish (axborot, kommunikativ texnologiyalar, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va boshqalar) zarur.

Ushbu ziddiyatni bartaraf etish ta'lim tizimining rahbarlari, malaka oshirish tizimidagi professor-o'qituvchilarning imkoniyatlarini jamlash va ular tomonidan pedagogik fan yutuqlarining o'zlashtirilishini taqazo etadi.

Pedagogik texnologiya o`qitish xususiyatlarini uning maqsadga yo`naltirish, pedagog va ta`lim oluvchining o`zaro munosabatlari, ta`lim jarayonida ularning dunyoqarashlari kabi jihatlarini yuqori ahamiyat darajasiga ko`taradi.

O`qitish texnologiyasining keng qo`llanila boshlanishi quyidagi savolni keltirib chiqardi: moddiy ishlab chiqarishdagi keskin chegaralar, standartlar va loyihalar ta`lim sohasiga ko`chirilishi kerakmi? T.S.Nazarova (1999 y.) esa savolni kengroq qo`yadi: «Agar ta`lim tizimi texnologiyalashgan jamiyat bilan yagona oqimda ekanligi tan olinsa, texnologiyaning afzalligi nimalarda namoyon bo`ladi? T.S. Nazarova keyinchalik mushohada yuritadi: «Qo`yilgan savolga javobni chamasi avvalo, tizimning umumiy nazariyasidan qidirish lozim. Ayni paytda "tartibga solish masalalarini" echishda tizimli yondoshuv mohiyatini aniqlash lozim". Kibernetika va ekologiya tizimining umumiy nazariyasidan, lozim bo`lgan turli-tumanlik qonunidan ma`lum bo`lgan, ya`ni yashash uchun ko`rashish evolyutsiyasi davomida tizimni tabiatdagi umumiy tendentsiyalar o`rtasidagi qarama-qarshiliklarni soddalashtirish va murakkablashtirishga oid paradoksni hal etgan ierarxik kompensatsiya qonuniga mavzularini tavsiya etishni murojaat etamiz. Qo`shimcha qonuniyatning mohiyati quyidagicha: xilma-xillikning yuksak tashkiliy darajasi undan oldingi xilma-xillik darajasini cheklaydi. Qonuniyatni turli bilim sohaslaridagi misollar bilan namoyish etish mumkin. Ta`lim sohasida uni qanday tashkil qilish mumkin? Fikrimizcha, ta`lim tarbiya jarayonini me`yorlar, standartlar, chegaralar, algoritmlar vositasida sezilarli soddalashtirmay turib, ta`lim tizimidagi murakkablik, boshi berk yo`l va betartiblik xavfini engib bo`lmaydi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida texnologiyani ta`lim jarayoniga bevosita qo`llash bilan ushbu maqsadga erishish mumkin. Buning natijasida o`quv jarayonini ierarxik tashkil etish bosqichini soddalashtirishga erishiladi va bu yuqori bosqich uchun ma`lum imkoniyatlar yaratadi: "O`z navbatida, mumkin qadar o`quv jarayonining soddalashuvi yuqori darajadagi ta`lim muammolarini, maqsadlarini, o`qitishning yangi yo`nalishlarini, ijodiy rivojlantirishni, aks aloqalarini va umuman, ta`lim jarayoni faoliyati turlarini ko`paytirish imkonini beradi».

2-jadvalda o`qitishga texnologik yondoshuvning umumiy tavsifini ko`rib chiqamiz (batafsil emas).

O`quv jarayonining texnologik modeli negizi va uning muayyan amaliyoti an`anaviy ta`lim berishni isloh etish jihatidan innovatsion mohiyat kasb etadi. Pedagogikada ham texnologik, ham izlanuvchan yondoshuvlar zarurligini ta`kidlaymiz: har birining afzallik tomonlari mavjud va ularni samarali qo`shib ishlatilishi ma`qul.

2-jadval

Yondoshuvlarning qiyosiy tahlili: an`anaviy, reproduktiv va produktiv pedagogik texnologiyalar

Tushuntirish, namoyish etish (tavsianomali, an`anaviy yondoshuv)	Pedagogik texnologiya	
	Reproduktiv	Produktiv (muammoli izlanuvchan) daraja
Umumiy tavsif		
Aniq, o`quv maqsadlarsiz, o`qituvchidan o`quvchiga axborotning o`zatilishi	Kafolotlangan natijalarga erishishga yo`nal-tirilgan o`quv jarayonini islox etishga qaratilgan innovatsiyalar	Izlanuvchan o`quv-idrok etish jarayonini tashkil etishga qaratilgan, o`quv jarayonini qay-ta shakllantiruvchi innovatsiyalar
O`qitish harakteri		
Bilimlar o`quvchiga «tayyor» holda berilla-di, o`quvchi mavzuni tushuntiradi, turli yo`llar bilan uning o`z-lashtirilishini, mu-shohodasini va	Mavzu haqida axborot-ni e`lon qilish, namunaga muvofiq harakat-larni shakllantirish, yuqori samarali ta`limga	Yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash ko`nikmasini shakllantirish, egallangan bilimlarni yangi sharoitlarda qo`llay bilish.

xoti-rada ta`minlaydi.	saqlanishini	yo`naltirish va uning qayta-qayta takrorlanishiga erishish.	
Ta`lim jarayonining yo`naltirilganligi			
Odatda aniq ko`r-satilgan va qat`iy tushuniladigan o`quv maqsadlariga erishishga yo`naltirilgan. Ho-tirada bexato tiklash maqsa-dida xotirada saqlashga doimo urg`u berish. O`quv mate-rialini etarli idrok qilinmasligi oqi-batida fikrlashning faollik darajasi past	O`qitish kutilayotgan natijalari aniq qayd etib boriladigan qayta tinglovchi konveyer ja-rayoni tariqasida olib boriladi. Buning uchun pedagogik texnologiya, ya`ni tarkibida kategoriyalar, asosiy turlari ajratilgan maqsadlar tizimidan va ketma-ketligidan (ierarxiya) foydalaniladi	O`quvchilarda yangi tajribalarni mustaqil o`zlashtirish qobiliyatini rivojlantirish. O`qituvchi va o`quvchilar fao-liyatining yo`nalishi yangi bilimlar, faoliyat usullari, fikrlar yaratishga qaratilgan.	
Tashabbus			
O`qituvchiga mansub	Asosan o`qituvchiga tegishli	O`quvchilarga beriladi	
Qiziqish harakteri			
Tashqaridan	Ko`pincha tashqi	Ko`pincha ichki	
Pedagogning vazifalari			
O`quv axborotining asosiy etkazuvchisi. Aso-siy diqqat o`qitish mazmuniga qaratiladi. Asosiy maqsad axborot berish va nazorat qi-lish. Odatdagi OTMda 80% vaqt o`qituvchi ma`ruzasi bilan band bo`ladi.	Moslashtirilgan, standartlashtirilgan mavzular bilan o`quv-chilarniig xatti-hara-katlarini tashkil eta-di, maslahatlar turli vositalar bilan etalon natijaga erishishni ta`minlaydi	Pedagog - "rejissyor", "trener" yoki "dirijyor" mav-qeida o`quvchilarda izlanish, tadqiqot tajribasining muhim yo`nalishlarini topish ko`nik-masi bilan shakllantiradi.	
Jarayon harakteri			
Barcha imkoniyatlarni xotira-da saqlashga qaratish. Mavzuni tushuntirish davomida o`qituvchining auditoriyadagi mavqei ustun, o`quvchilar faol-ligiga yo`l qo`yiladi	Harakati (faoliyati) orqali o`qitish, harakatlari-ning berilgan namuna-sini o`zlashtirish, ular-ni bajarish mashqi. O`qitishning faol me-todlarini keng qo`llash.	Ta`lim oluvchi o`qituvchi rahbarligida ta`limiy vazifa-larni, muammoli vaziyatlarni echadi, ularni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xu-losalar chiqarish bo`yicha mashq-lar echadi. Natijada ularda mustahkam bilimlar hosil bo`-ladi. Pedagog faoliyati kela-jakka qaratilgan. Mustaqil o`quv faoliyati nisbati yuqori.	
Uslub			
Shaxsiy obro`ga asoslangan qatag`on yo`nalishga ega.	Demokratik	Demokratik, rag`batlantiruvchi	
Aksariyat ishlatiladigan o`qitish usullari, metodlari va shakllari			
Mahsuldor usul-ning turg`un ko`rinishi. Ko`pchilik o`quvchilar muammoli va faol o`qi-tish usullaridan bexa-bar va ular faoliyati monolog va axborot o`zlatishga asoslangan	Mazmunni boshqarish, o`quv mavzu-lardagi murakkablikni mezonlab borish; ta`lim oluvchining xatti-harakati orqali o`qi-tish.	O`quv mavzularini manti-qiy taqsimlash turliligi, xilma-xil ko`rgazmalar; texnik vositalarni samarali qo`llash, kichik guruhlarda dars uyush-tirish, o`qish jarayonida hamkorlik, o`quv o`yinlarini ta`limda qo`llash; ta`lim oluv-chilarni ilmiy tadqiqot va izlanish faoliyatiga jalb qilish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish.	

2. O`quv maqsadlari va vazifalarini loyihalash

Ta`limni qanday qilib kafolatlangan natijaga olib keluvchi o`ziga xos texnologik jarayonga aylantirish mumkin? Qanday qilinsa oddiy pedagog o`qitishda yuqori samaraga erisha oladi?

Ma`lumki, sanoatda zamonaviy texnologiya mehnatni keng taqsimlashni ko`zda tutadi. Mahsulotni loyihalash va uni tayyorlash texnologiyasini yuqori malakali mutaxassislar amalga oshiradi. Bunda, avvalo barcha iker-chikirlarni aniq, o`zil-kesil ifodalaydigan, nima va qanday tayyorlanishi ko`rsatilgan loyiha ishlab chiqiladi, shundan keyingina mahsulotni tayyorlash va ishlab chiqarishni tashkil etish boshlanadi.

Muayyan vazifani bajaruvchi ishchilar texnik hujjatlarning talablariga qat`iy rioya qiladilar. Natijada o`rtamiyona maxorat bilan ancha murakkab vazifani bajarishga imkon yaratilib, tayyor mahsulotning yuqori sifati ta`minlanadi.

Pedagogik texnologiyada ham o`qitish jarayonini loyihalash bosqichiga va avvalo, ta`limning kutilajak natijalariga alohida e`tibor qaratiladi. Bizning fikrimizcha, texnologik yondashuvning dastlabki bosqichida didaktik vositalarni ishlab chiqishni bir guruxh tajribali uslubchi o`qituvchilarga topshirish maqsadga muvofiq bo`ladi.


Pedagogik texnologiya paydo bo`lgunga qadar boshqa masalalar qatorida murakkab qurilma va jarayonlarni loyihalash o`rganiganiladigan ta`lim tizimida aynan ta`lim jarayonining o`zini samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Bu bo`shliqni pedagogik texnologiya to`ldirdi va ayni paytda loyihalashtirilgan o`quv jarayonini ro`yobga chiqarishga ijodiy yondashish uchun pedagogga keng o`rin qoldirdi.

Pedagogik texnologiyaning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o`quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o`quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondoshuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyixhalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko`rsatmali tuzilmada o`z ifodasini topadi. Orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta`limda esa fan bo`yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo`li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta`lim oluvchi bilan muntazam o`zaro aloqani o`rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta`lim oluvchining xatti -harakati orqali o`qitishdir. O`zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o`quv jarayonini to`liq qamrab olishi kerak. Shu tezisni batafsil ko`rib chiqaylik.

Pedagog odatda o`z oldiga o`quvchilar materialining mazmuni- ni tushunib, o`zlashtirib olishsin, ma`lum bilimlarni egallab amaliyotda qo`llashga o`rgansin, degan maqsadni qo`yadi. Lekin o`z- lashtirish, tushunish, qo`llash nimani anglatadi? Pedagog o`z oldiga qo`ygan maqsadga erishganligini qanday biladi? Pedagogik maqsadlarga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo`lgandagina, pedagog o`zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlari maqsadga muvofiqligiga yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Odatdagi o`qitish uslubini tadqiq qilishda pedagogik texnologiya tarafdorlari aynan shu narsani nazarda tutishgan edi.

Ma`lumki, pedagog jamiyatdan buyurtmani umumiy ko`rinishda oladi. Hattoki, o`quv dasturlarida belgilangan maqsadlar ham bir nechta tushuntirishlar bilan cheklangan. Bu erda maqsadlarni aniqlashtirishning o`ziga xos pillapoyasini tuzish mumkin: jamiyatning umumiy talablaridan ta`lim tizimi vazifalariga, ulardan ma`lum o`quv yurti, o`quv predmeti, uning tematik bo`limlari va alohida o`quv masalalariga (2-rasm).



2-rasm. O`quv maqsadlarining shajarasi

Pedagoglar tomonidan maqsadlarni belgilashning an'anaviy usullariga qaraylik (M.V.Klarin bo'yicha).

- O`quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash. Masalan: "N'yutonning ikkinchi qonunini o'rganish" yoki "birinchi bobning mazmunini o'rganish". Maqsadni bunday qo'yish orqali bilim sohasining predmetli mazmunga qaratilganligi va pedagog o'z maqsadiga erishganligi haqida aniq hukm chiqarish qiyin. Bu usulda maqsadga erishganlikni qanday aniqlash mumkinligi ko'rsatilmagan.

- Maqsadni pedagog faoliyati orqali ifodalash. Masalan: "O'quvchilarni ichki yonuv dvigatelining ishlashi bilan tanishtirish" yoki "detal chizmasida shartli ifodalarni o'qish usullarini ko'rsatish". "Pedagogning" maqsadni bunday qo'yishi uning o'z faoliyatiga qaratilgan. Bu erda ham ta'lim jarayonining aniq maqsadlarga erishganligini qanday bilish mumkinligi ko'rsatilmagan.

- O'quvchining intellektual, emotsional, shaxsiy rivojlanishining ichki jarayonlari va qonuniyatlari orqali o'quv maqsadini qo'yish. Masalan: "Hodisani tahlil qilish malakasini tarkib toptirish", "Komp'yuterda matematik masalalarni mustaqil echish malakasini rivojlantirish", "Komp'yuterda fizik masalalarni echish jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish"...

Bunday mavzularda o'quv yurti doirasidagi o'quv maqsadlari, o'quv predmeti yoki predmetlar majmuasi doirasida qo'yilganligi ko'rinib turibdi, lekin o'quv mashg'uloti yoki hatto mashg'ulotlar jamlamasida ham emas. Bunda o'quv maqsadiga erishganlik haqida ko'rsatkichlarni topib bo'lmaydi.

O'quv maqsadlarini o'quvchilar faoliyati orqali qo'yish, Masalan: "Ijriba mashg'ulot maqsadi - komp'yuterda kvadrat tenglama ildizlarini topish bo'yicha misol echish".

Bir qarashda o'quv maqsadini bunday echish mashg'ulotni rejalashtirish va o'tkazish xususida aniqlik kiritadi. Lekin bu erda ham diqqat markazidan asosiy narsa tushib qoladi - o'qitishdan kutilayotgan natija va uning oqibati. Bu natija o'quvchi rivojlanishidagi ma'lum siljishdir.

Shu munosabat bilan o'qitishning maqsadlarini ta'lim mazmuni, pedagogning yoki o'quvchining faoliyati orqali belgilash ta'limda kutilayotgan natijalar haqida aniq taassurotga ega bo'lishga imkon bermaydi. Bu natijalar haqida o'quvchilar faoliyatining faqat tashqi namoyon bo'lishidan xulosa qilish mumkin. Pedagog o'qitish natijasini aniqlashtira borib, uning ko'zatish mumkin bo'lgan tashqi belgilarini (so'zlashuv, harakatlanish) to'la tasvirlashga intiladi. Gohida tasvirlash jarayonining tashqi

belgilarini sanab chiqishga olib keladi, demak bu orqali natijani sezilarli soddalashtirish mumkin. Holbuki, ilmda ham, amaliyotda ham murakkab jarayonlarni sodda andozaga keltirish juda zarurdir.

Pedagogik texnologiyada nazarda tutiladigan maqsadlarni qo'yish uslubi o'zining ashyoviy xususiyatiga ega. Bu shundan iboratki, o'qitish maqsadlari o'quvchilar harakatida ifodalanadigan, aniq ko'rinadigan va o'lchanadigan natijalar orqali belgilanadi. Ushbu R.Taylarning 1930 yilda ilgari surilgan g'oyalari asoslangan:

- Murakkab faoliyatni (xatti-harakatni) bevosita ko'zatish mumkin bo'lgan oddiy harakatlari yig'indisi sifatida tasavvur qilish mumkin;

- Pedagogik maqsadlarni ko'zatish mumkin bo'lgan xatti-harakat tiliga o'tkazish mumkin;

- Ko'zatilayotgan xatti - harakatning o'zgarishi ta'lim jarayonining maxsulidir (Ty-ler R.W. Constructing achievement tests Columbus (Ohio), 1934; Smith E.R. Tyler R.W. and the Evaluation Staff Appraising and recognizing student pro-gress. N.Y., 1942).

Amerika Qo'shma SHtatlarida, Angliyada va boshqa mamlakatlarda o'quvchi va o'qituvchi uchun maqsadlarni alohida-alohida belgilash odatga kirgan. Bu mantiqan to'g'ri, chunki o'qitish - pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi. Bunda maqsadlar o'qituvchining faoliyatidan kelib chiqqan xolda qo'yiladi (o'rgatish, tushuntirish, ko'rsatish, aytib berish va xokazo), o'quvchining harakatlarida ifodalanadigan natijalar esa ta'limning vazifalari deyiladi. Vazifa talabani tugallangan xatti-harakatini ifodalovchi atama bilan ifodalanishi shart.

Shunday qilib, an'anaviy o'quv jarayonida asosiy omil pedagog (va uning faoliyati) hisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o'ringa o'qish jarayonidagi o'quvchilarning faoliyati qo'yiladi.

Vazifalarni o'lchash, aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya'ni ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin. SHuni ta'kidlash kerakki, pedagogik adabiyotda vazifalar ba'zan identifikatsiyalashgan (taqqoslanadigan) pedagogik maqsadlar deb ataladi (M.V.Klarin, 1989).

O'quvchilarning vazifalari haqida o'qitishning natijalari sifatida o'ylang. Shunday qilib, o'qitishning vazifalarini tekshirish va baholash lozim.

Vazifalarni yanada aniqlash maqsadida quyidagi qadamlarni qo'llang:

- har bir vazifalar guruhini "Dars yakunida talabalar quyidagilarni bajara olishlari lozim. . ." - deb boshlang;

- har bir vazifani raqamlang ;

- har bir vazifani quyidagi fe'llardan boshlang: sanab o'ting, eslang, so'zlab bering, ko'rsatib bering, tanlang, hisoblang va xokazo;

- har bir vazifani talaba so'zi bilan qo'ying (o'qituvchi atamasida emas);

- har bir vazifa faqat bitta natijani ko'zlasin, ikkita-uchtani emas;

- har bir vazifani shunday qo'yingki, toki u o'qituvchining o'tadigan darsining bosqichlarini emas, balki "talabani o'zini keyinchalik qanday tutishi kerakligiga ishora qilsin";

- vazifalarni shunday yozingki, uning ishlatilishini mezonlash va qanday qilib maqsadga erishilganligini aniqlash mumkin bo'lsin;

- ular buni qila oladilarmi? - degan savol xolis baholashda ishlatiladi (kerakli test topshiriqlarini tuzishda).

Vazifalar bizlarga o'quv savollarini, mavzularni, bo'limlarni, butun fanni, nimalarni baholash kerakligini (og'zaki, yozma yoki test uslubida) aniqlab beradi.

Maqsadlarni mutlaqo to'liq taqqoslash g'oyasi shuni nazarda tutadiki, bundan so'ng o'quvchi faoliyatini ko'zatish, o'lchash vo-sitalari orqali tushuntirish imkoni turiladi.

Dasturlashgan o'qitishning asoschisi (pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishida muhim ahamiyat kasb etgan) B.Skinner maqsadlarini har doim qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi va bunday maqsadlarni shunchalik noaniq ifodalaydiki, ularga erishganlikni tajribada aniqlash mumkin bo'lmay qoladi. «Uning (an'anaviy atamalar orqali o'quv maqsadini shakllantirgan o'qituvchining) o'quvchilari, ehtimol o'qishni bilmaslar, lekin u o'quvchilarda bilimga nisbatan muhabbat uyg'otishga harakat qildi. Ular masalalar echishni bilmaydilar, lekin u o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishni yukladi. Ular asosiy dalillarni bilmasligi mumkin, lekin u o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otishga intildi.»

Ta'lim mazmuni odatga ko'ra, asosan mavzuviy yo'nalishga ega va unda o'qitishning aniq maqsadlarini ko'rish qiyin. O'qitish vazifalarini (taqqoslanadigan maqsadlarni) ishlab chiqishni engillashtirish uchun ularning ta'rifida o'zlashtirgan o'quvchilar malakasini ifodalovchi fe'llardan foydalanish mumkin, masalan:

- muayyan dalilni biladi;
- qoidani biladi;
- og'zaki bilimni matematik ifodaga ko'chiradi;
- chizma (grafik, diagramma va b.)ni tushuntiradi;
- berilganlardan natijalarni keltirib chiqaradi;
- tushunchani yangi vaziyatda ishlatadi;
- qoida (qonun)ni ishlatadi;
- ma'lum qoidani yangi holatda to'g'ri qo'llashni namoyish qiladi;
- mavhum farazlarni ajratadi;
- fikrlash mantiqida xato va kamchiliklarni topadi va x.k.

Quyidagi chap ustunda keltirilgan fe'llar umumiy xususiyatga ega bo'lib, ular ko'p ma'noli va talabning bilim olganidan so'ng bajarishi zarur bo'lgan amalni aniq ifodalamaydi.

Vazifa uchun (taqqoslanuvchi maqsadlar uchun) o'zil-kesil bir ma'noni anglatuvchi fe'llarni tanlash ma'qul:

o'rganish	belgilash
o'zlashtirish	aniqlash
tanishish	guruhlash
tushunish	tuzish

Masalan, quyida ko'rsatilgan maqsadlardan ikkinchisi aniqroqdir:

1. o'quvchi qoidani o'zlashtirmoqda;
2. o'quvchi tanish (yoki notanish) vaziyatda qoidani qo'llamoqda.

Shunday qilib, maqsadlarni aniqroq, muayyanroq qo'yishning asosiy yo'li – ma'lum natija bilan yakunlanadigan harakatlarni ifodalaydigan fe'llardan foydalanishdir.

Taqqoslanadigan ta'lim maqsadlarini (vazifalarini) shakllantirish quyidagi andoza bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak: muayyan o'quv mashg'ulotining umumiy maqsadi -> o'qitishning xususiy maqsadi -> Taqqoslanadigan o'qitish maqsadi (vazifa).

3-rasmda maqsadni 14ta fe'l yordamida uch bosqichda shakllantirish yo'li ko'rsatilgan, maqsadlarni bunday ajratish va aniqlashtirish orqali muayyan o'quv mashg'uloti natijalarini baholash uchun kerakli test topshiriqlarini ishlab chiqish qiyin emas.

Bu andozani o'qitishning xususiy maqsadlari haritasi sifatida qarash mumkin.

Xorijiy ta'lim amaliyotida quyidagi o'quv natijalarini darajalash tarqalgan (shuningdek, o'qitish maqsadlari):


1. Tanishtiruv (discovery): mazkur fan sohasidagi asosiy tushuncha va tartiblar bilan tanishuv.

2. Asoslarni o'zlashtirish (literacy) fan sohasining asosiy tushunchalarini qayta izhor (tasvir) etishni nazarda tutuvchi navbatdagi bosqich.

3. Egallash (fluency): fan sohasida asosiy tushuncha va tartiblarni muvaffaqiyatli tatbiq etish.

4. To'liq egallash (to'la o'zlashtirish) – mohirlik (mastery): mazkur fan sohasidagi asosiy tushuncha va tartiblarni samarali qo'llash va qolgan o'quvchilarga bilimlarni va ko'nikmalarni o'zlashtirish va mustahkamlash bo'yicha yordam berish.

Ushbu darajalarni izohlash uchun fe'llar misolini keltiramiz (Klarin, 1997):



3-rasm. Yozma matnning ma'nosini tushunish

Asoslarni o'zlashtirish		
Aniqlash Izohlash Nomlash	Tasniflash Aniqlik kiritish Taqqoslash (o'xshatish)	Saralash Tanlash Sanab chiqish
Asoslarni o'zlashtirishdan egallashga o'tish		
Saralab olish Farqlash	Aniqlash Farqlash	Xulosa yasash Tahliliy tasvir berish
Egallash		
To'ldirish To'plash Hisob keltirish Tuzish Turish Tartiblash	Qo'llash Tuzish Taqqoslash Solishtirish Echish Bashorat qilish	Tartibga solish Barpo etish Yakunlash Ixtiro qilish Nisbiylash Xizmat qilish

O`tkazish Soddalashtirish Qayta ishlash Modifitsirlash Tizimga solish	Muhokama qilish Tekshirish Rejalashtirish Qayta tartiblash	Tizimlashtirish Sozlash Loyihalash Talqin etish
Idrok qilishdan to`la idrok etish (ustalik bilan egallash)ga o`tish		
Tahlil qilish Tahrir qilish Namoyish etish Taqribilash O`rtacha qiymatlash	Baholash Tekshirish Boshqarish Tushuntirish Majmualashtirish	Tashhishtash Saralash Tanqid qilish SHashkllantirish Maslahat berish

Quyida R.Musina tomonidan o`rta, maxsus, kasb-hunar ta`limining iqtisod va texnika fanlari bo`yicha to`zilgan fe`llar ro`yxatidan parcha keltirilgan:

Taqqoslash	Tasvirlash	Egri chiziqli O`zgartirish
Jadval to`ldirish Izohlash Baholash Ihchamlash Egri chiziq, chizma va jadval chizish Aloqa bog`lash Afzalligini ochish Xulosa chiqarish Farqini aniqlash	Egri chiziq qurish Echish Aks ettirish Oshirish Hisoblash Chiqarish Umumlashtirish Farqini aniqlash Bashorat qilish Kamchiliklarni aniqlash	Tasvirda belgilash Tanlash Topish Chizmada tasvirlash Tekshirish Berilganlarni Ko`chirish Sabablarni aniqlash Chizmadagi nuqtani aniqlash Samaradorlikni ko`rsatish Harakatchanlikni aniqlash

Har bir pedagog o`quvchilar bajarishi mumkin bo`lgan xatti- harakatlarni tasvirlovchi fe`llar ro`yxatini tuzishi maqsadga muvofiq va ushbu ro`yxat turdagi o`quv maqsadlarini ishlab chiqish jarayonida foydalaniladi.

Ta`kidlash kerakki, taqqoslanadigan o`qitish maqsadi (vazifasi) kutilayotgan natijaning oxirigacha o`zil-kesil ta`rifi hisoblanmaydi, balki unga yaqinlashtirilgan natijadir,

Shu bilan birga o`qitish vazifalarini (taqqoslanadigan o`quv maqsadlarini) belgilashda qiyinchiliklar ham bo`lishi mumkin. Ayrim paytlarda o`qitish maqsadlarini alohida-alohida tarkibiy bo`laklarga bo`lib, ularning tahlili natijasida taqqoslanuvchi o`quv maqsadlarini tuzish va ularni test topshiriqlariga o`tkazish qiyin kechmaydi. Shu bilan birga, ikkinchi xil xollarda qismlarga bo`lish va ularni tahlil etish qiyin kechadi, taqqoslanuvchi o`quv maqsadini tuzish mumkin bo`lsada, uni tuzish nihoyatda murakkab.

Shuni ta`kidlash kerakki, pedagog o`qitish jarayonini reproduktiv doirada ushlab turuvchi “kat`iy” taqqoslanuvchi o`quv maqsadlari yoki izlanuvchan o`qitish xususiyatiga ega mavhumroq o`quv maqsadlaridan birini tanlashga majbur. M.V.Klariniing (1989) ta`kidlashicha, ijodiy xususiyatga ega bo`lgan ta`lim maqsadlarini tanlaganimizda uning belgilarini (o`qitishning muayyan natijalarini) xolis ifodalash qiyinlashadi. Madaniyati, ijodiy fikrlashi va sezgirlik darajasiga bog`liq xolda o`qituvchining bahosi ekspertnikiga yaqin bo`ladi. Shuning uchun o`quv maqsadlariga qo`yilgan “qat`iy” talablar bir oz “yumshatilib”, ijodiy ko`rinishga ega bo`lgan maqsadlarni ta`riflashda ma`lum bir darajada noaniqlikka yo`l qo`yish kerak bo`ladi.

Bunday hollarda B.Blum taksonomiyasiga asosan umumiy maqsadlardan foydalanish mumkin. “Taksonomiya” tushunchasi narsalarning tabiiy bog`liqligi va xususiyatlariga ko`ra ko`p-bosqichli (ierarxik) to`zilishi asosida tavsiflash va

tizimlashtirishni anglatadi. 3-jadvalda keltirilgan B.Blumning o`quv maqsadlari taksonomiyasi dunyodagi eng ko`p tarqalganlardandir.

3 –jadval

№ t.r	O`quv maqsadlarining asosiy kategoriyalari	Turlar va turlar ostidagi tavsiflar
1	<p>BILISH. Bu kategoriya o`rgatilgan bilimlarni eslab qolish va qayta tiklashni belgilaydi. Mazmunning har xil turlari to`g`risida aniq dalillardan bir butun nazariyagacha so`z borishi mumkin. Bu kategoriyaning umumiy belgisi tegishli ma`lumotlarni xotirada tiklashdir.</p>	<p>Dalillarni bilish Atamashunoslikni bilish. Muayyan dalillarni bilish.</p> <p>Dalillarni tanlash Shartli belgilarni bilish. Rivojlanish yo`nalishini bilish.</p> <p>usullarini bilish. Tavsiflashni bilish. Sinov mezonlari va baholashni bilish. Ushbu muammo bo`yicha shu sohada qo`llaniladigan tekshirish uslublarini bilish. Xodisalarni izohlash va tushuntirish hamda ularni oldindan ko`rish uchun kerak bo`ladigan asoslar va qonunlarni bilish. Nazariyalar va to`zilishlarni bilish</p> <p>Umumiy tushuncha, tarkib va nazariyalarni bilish</p>
2	<p>Tushuntirish Bilimning bir ibora turidan boshqasiga, uni bir tildan ikkinchi tilga (masalan og`zaki shakldan tematik shaklga) o`zgartirish. Tushunishning ko`rsatkichi sifatida o`quvchilarning tushuntirishi qisqa bayon qilish yoki hodisaning (voqeaning) keyingi oqibati haqida takliflar kiritishini qabul qilish mumkin.</p>	<p>Mazmunni bir tildan ikkinchisiga o`girish. Tushuntirish (mushohada etish). Ekstropolyatsiya (bilimni o`xshash vaziyatga ko`chirish).</p>
3	Metodlar, qoidalar va umumiy tushunchalarni qo`llash	
	<p>Bunga qoidalar, metodlar, tushunchalar, asoslar, tamoyillar, nazariyalarning qo`llanilishi kiradi. O`qitishga tegishli natijalar uchun tushunishdan ko`ra yuqoriroq darajadagi bilimga ega bo`lish talab etiladi.</p>	<p>Umumiy tushunchalar, qoidalar, metodlarning qo`llanilishi</p>
4	<p>Tahlil Ya`ni butunni elementlarga bo`la bilish, bu elementlarning nisbatini va ularning orasidagi munosabatni o`rnatish, butunni tashkil qilish asoslarini bilish. O`quv natijalari bunda tushunish va qo`llanishga qaraganda ancha yuqori intellektual darajali tavsiflanganligi sababli, o`qitish mazmunini shuningdek, uning ichki to`zilishini talab qiladi.</p>	<p>Elementlarning tahlili. Elementlar orasidagi munosabatning tahlili. Butunni tashkil etish asoslarining tahlili.</p>
5	<p>Sintez Ya`ni yangi tuzilma olish maqsadida berilgan elementlardan bir butunni hosil qilish. Tegishli natijalar faoliyatining ijodiy xususiyatga ega bo`lishini, yangi shakllar va</p>	<p>Insho yozish. Ish rejasini tayyorlash. Qismlardan iborat ma`lumotlar asosida butun ko`rinishni yaratish.</p>

	tizimlarni vujudga keltirishga urg`u berilishini ko`zda tutadi.	
6	Baholash Ya`ni bilimlar va metodlarni qabul qilingan maqsadni hisobga olgan holda baholash. Ushbu tushuncha oldingi hamma tushunchalar bo`yicha baholash mulohazalarini qo`shgan holda aniq tasvirlangan mezonga muvofiq o`qish natijalariga erishishni mo`ljallaydi.	Ichki mezonlar asosida baholash (to`zilish, mantiqiy) Tashqi mezonlar asosida baholash (belgilangan maqsadga mosligi)

Keltirilgan jadval test vazifalarini ishlab chiquvchi pedagogga o`quv mavzularining ayrim qismlarini sanab o`tilgan o`quv maqsadlari kategoriyasiga moslashtirish va shu orqali test vazifalari mazmunini va ularning muqobil turlari mazmunini izlash doirasini ixchamlashtiradi.

B.Blum taksonomiyasini qo`llab, umumiy o`quv maqsadlarini (taqqoslanadigan o`quv maqsadlarini tuzish qiyinlashganda) shakllantirish mumkin. Shuningdek, pedagog maqsadlarni belgilab va aniqlashtiribgina qolmay, balki tartiblashtiradi ham. Maqsadlarning aniq shajarasimon tasnifnomasini qo`llash esa amaliyotchi o`qituvchiga quyidagi yordamlarni beradi:

1. o`qitish samarasini asosiy maqsadlarga yo`naltirishga;
2. o`quvchilarning bilim olishdagi umumiy faoliyatida yo`nalish berishga, muhokama qilishga va ularni tushunishni qulay qilishga.

Quyida Blum B. taksonomiyasi bo`yicha o`quv maqsadlari kategoriyasiga mos keladigan fe`llar ro`yxati keltirilgan.

Shu paytgacha pedagogikada idrok etish (kognitiv) sohasi bo`yicha o`quv maqsadlarining qator taksonomiyalari ishlab chiqilgan: V. Gerlaxa – A.Salivaia, A.Ds Blokka, Dj Gilforda, R. G`eydjna – M. Merrilla (“Pedagogika” jurnali, 2000, № 4).

Bilish	Esga tushurish Eslab qolish Axborot berish Aytish YOzish	Tasvirlash Farqlash Tanlab olish Aytib berish Takrorlash
Tushunish	Dalillash Almashtirish Muayyanlashtirish Belgilash Tushuntirish	Ko`chirish Qayta ishlash Namoyish etish Izohlash Ochib berish
Foydalanish	Tadbiq qilish Hisoblab chiqish Namoyish etish Foydalanish O`qitish	Aniqlash Amalga oshirish Hisoblash Amalga oshirish Echish
Tahlil qilish	Keltirib chiqarish Ajrati chiqish Umumlashtirish Turlash Faraz qilish	Oldindan ko`rish Saralash Bo`lib chiqish Tekshirib ko`rish Guruhlash
Sintez	Kashf qilish Umumlashtirish Birlashtirish Rejalashtirish Ishlab chiqish	Tizimlash Birlashtirish Barpo etish Tuzish Loyihalash
Baholash	Tashxislash Isbotlash O`lchash Asoslash Qo`llab-quvvatlash	Baholash Tekshirish Nazorat qilish Taqqoslash Solishtirish

Tashxislash maqsadlariga muntazam ravishda yo`naltirish texnologik o`qitishdagi baholashning o`ziga xosligini belgiladi. Maqsad tashxis nuqtai nazaridan qo`yilganda o`qitish ham uning xossalariga andoza (etalon) sifatida asoslanadi. O`qitish jarayonida joriy baholash aloqa vositasini o`ynaydi va maqsad andozaga erishishga qaratilgan. Agar maqsadga erishilmagan bo`lsa, joriy nazorat natijalari o`qitish jarayoniga to`zatislar kiritish kerakligi haqida dalolat beradi. Shuning uchun joriy nazorat bu erda shakllantiruvchi hisoblanadi va baho qo`yilmaydi. M.V.Klarinning ta`kidlashicha, aniq maqsadlarni ishlab chiqish juda murakkab masala, bir kishining qo`lidan kelmaydi. Shuning uchun bir guruh o`qituvchilar va uslubchilarning o`zaro hamkorlikdagi faoliyati talab qilinadi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyada o`quv jarayonini rejalashtirishda (loyihalashtirishda) xususiy, iloji bo`lsa taqqoslanadigan o`quv maqsadlarini ishlab chiqish muhim o`rin tutadi. Bunda ularning soni haqidagi (mavzu, bob, o`quv predmeti uchun) masala ham katta ahamiyatga ega.

O`quv jarayonining texnologik modeli va uning muayyan tatbiqi innovatsion (yangicha yondashuv) ko`rinishga ega va an`anaviy o`qitishni o`zgartiradi. Bu o`zgarishlarning yo`nalishi – tashhislab berilgan maqsadlar asosida aniq maqsadni qo`yish, baholashning joriy (shakllantiruvchi) va yakuniy (jamlovchi) vazifalarini aniq ajratish, rejalashtirilgan o`quv natijasiga garovli erishishga intilish, o`quv faoliyati turlari hamda o`qituvchi va talabalar hamkorligini tashkil etish usullarini ixtiyoriy-izlanib tanlash, reproduktiv topshiriqlarni bajarish orqali o`quv mavzusini mustaxkamlash, kichik o`quv guruhchalarida namunaviy natijalarni o`zlashtirishga yo`naltirilgan o`zaro tekshiruvlar tashkil etiladi. va nihoyat, B.Blum o`quv maqsadlari taksonomiyasining qo`llanish misolini ko`rib chiqamiz (4-jadval).

4-jadval

B. Blum taksonomiyasi bo`yicha mashq

№	Vaziyat	Javobni tanlash
I	O`quvchi gazeta maqolasida berilgan dalillar o`rtasida qarama-qarshiliklarni topadi.	A. Bilish
II.	O`quvchi gazeta maqolasida berilgan dalillar bi-lan tanishligini namoyon qiladi.	V. Tushunish
III .	O`quvchi o`zining inshosida gazeta maqolasidagi dalillarni umumlashtiradi.	D. Tatbiq qilish
IV.	O`quvchi gazeta maqolasini dalillarni umumlashtiradi.	E. Analiz(tahlil)
V.	O`quvchi gazeta maqolasini tahlil qiladi va tushuntiradi.	F. Sintez
VI.	O`quvchi gazeta maqolasiga tanqidiy munosabat bildiradi	G. Baholash

Blum taksonomiyasi bilimlarni idrok qilish (kognitiv) sohlarini qamrab oladi. Shuningdek, o`quv maqsadlari taksonomiyasi ehtirosli qadriyat (samarador) va ruhiy xatti –harakat (psixomotor) lar darajasida ham mavjud.

Samarador maqsadlar doirasiga quyidagilar kiradi: qiziqish va monelikni shakllantirish, u yoki bu sezgilarni kechirish, munosabatni shakllantirish, uni tushunish va faoliyatda. namoyon etish.

Ruhiy xatti – harakat doirasiga yozish ko`nikmalari, gapirish ko`nikmalari hamda mehnat ta`limi va jismoniy tarbiya jarayonidagi maqsadlar kiradi.

Shunday qilib o`qitish va tarbiyalash maqsadlarini loyixalashtirayotgan paytda quyidagilarni ishlab chiqarish zarur:


- idrok qilish maqsadi (nimani biladi?, nimani uylayapti?),

- ruhiy xatti – harakat maqsadi (nima qilyapti?).
- ehtirosli qadriyat maqsadi (nimani sezmoqda?).

Pedagogik texnologiyada etalon natijani tasvirlash katta ahamiyatga ega. To'rt tarkibli erishilgan natijalar etalonini tasvirlash tavsiya qilinadi. (Klarin, 1997).


1. Tashqi muhit tavsifi;
2. Kutilayotgan o'quv maqsadlari (yoki ko'zatiladigan xatti-harakat);
3. Ularning etalon beklgilari (mezonlari);
4. Baholash metodi (o'lchov).

Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlari va vazifalarining ishlab chiqilishi bilanoq natijalarni baholash uni nazorat savollarini tuzish samaralidir (4-rasm). Bunday holda to'zilgan dars mavzusining matni (uslubiy ishlatma) nazorat savollar mazmunini va shaklini inobatga olish va o'quvchilarning kutilayotgan o'quv maqsadiga erishish uchun qulay uslubiy hujjatga zaruriy ma'lumotlarni kiritishni ta'minlaydi.



4-rasm. O'qituvchining dars o'tish bo'yicha tuzadigan uslubiy ishlanmasi bo'yicha harakat dasturi.

Tayyor uslubiy ishlanmada o'quv mashg'uloti mazmunini nazorat savollaridan oldin keladi.



5-rasm. Dars o'tkazish bo'yicha uslubiy ishlanma ketma-ketligi

Muayyan belgilangan o'quv maqsadlari va kutilayotgan natija orasida pedagog uchun o'qitish usuli va metodikasini tanlash erkinligi quyidagilarga rioya qilgan hollarda beriladi:

- Teng qiymatli (ekvivalent) amaliyot qoidasi: o'quvchilarning o'qitish shart-sharoitlaridagi xatti - harakatlari test o'tkazish yoki imtihon vaqtida kutiladigan xatti-harakatlarga to'la mos keladi.

- O'xshash amaliyot qoidasi: o'quvchilar kutilayotgan xatti -harakatlarni aynan shunday xatti –harakatni takrorlovchi emas, balki shunga o'xshash sharoitlarda mashq qilish imkoniga ega.

- “Natijalarni bilish” qoidasi o'quvchiga har bir xatti-harakatini baholash natijasini zudlik bilan ma'lum qilish; bu shart joriy baholash asosida yotadi (o'qitishda qayta bog'lanish sharti).

- Pedagog tomonidan ijobiy mustahkamlovchi rag'batlash qoidasi: o'quvchining ma'qul xatti-harakatlari rag'batlanib, mustahkamlanishi zarur; noto'g'ri xatti-harakatlari uchun tanbeh berilmaydi, balki istak tug'diruvchi amaliy tavsiya tarzida sharhlanadi (masalan, “yana bir marta ifodalashga urinib ko'r” yoki “bo'lim mazmunini yana bir marta ishlab chiqishing kerak”).

Mazko'r qoidalarning majmuasi reproduktiv tabiatni ifodalaydi.

Dasturlashtirilgan o'qitish doirasida B.Skinner ilgari surgan tamoyillar o'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida joriy etishda ham qo'llanilishi mumkin. Ularning muhimlariga quyidagilar kiradi:

- kichik qadamlar – o'quv mavzularini mumkin qadar kichik qismlarga (qadamlarga) bo'lish;

-javobni darrov tasdiqlash – o`quvchi to`g`ri javob berganligi (echganligi) haqidagi ma`lumotga ega bo`lishi kerak. ya`ni, o`zining javobini to`g`ri javob andozasi bilan taqqoslashi kerak;

-o`qitish sur`atini o`ziga moslashtirishi;

-murakkablikning asta-sekin ortishi;

-bilimlarni muttasil mustahkamlash: har bir o`qitish qadamini umumlashtirishni turli mazmunli kontekstlarda takrorlash va etarli miqdorda puxta tanlangan misollar yordamida izohlash zarur.

O`quv maqsadlariga erishish uchun o`qitishning turli modellari, shu jumladan, an`anaviy modellari ham qo`llanilishi mumkin.

V.Go`zeev (1998) ta`kidlaydiki, “muayyan shart-sharoitlarning har biriga mos keluvchi o`qitishning qulay modelini tanlash mezonlarining o`zi umuman mavjud emas. Hozirgi kunda bu o`qituvchining vakolatidagi uning tajribasi, salohiyati, ichki dunyosi va fikrlash tarziga bog`liq masaladir. Pedagogik texnologiyalarning serqirrali asosi o`qitish natijalarini tashxis etish va tartibga solish orqali ifodalangan maqsadlar sifatida rejalashtirish va ta`lim jarayonining mahsuldorligini o`zluksiz tashhislab borishdir. Erishiladigan maqsadlar aniq va muayyan, har bir damda berilgan shart-sharoitlarga mos metodlarni, shakllarni, usullarni va ularga erishish vositalarini pedagogik xazinadan tanlab olishga imkon beradi”.

O`zining taraqqiyotida pedagogik texnologiyalar jiddiy o`zgarishlarga uchradi. «Pedagogik texnologiya» so`z birikmasi –inglizcha an educational technology-«ta`limiy texnologiya»ning noaniq tarjimasidir. So`nggi atama pedagogik texnologiya atamasi o`rniga kirib kelmoqda. Gap so`zning o`zgarishidagina emas, tamoyilda jiddiy o`zgarishlar yuz berishi xaqida bormoqda.

Agar 60-80-yillar pedagogik texnologiyadagi doimiy tashxis me`yordan og`ishni o`z vaqtida aniqlashni va zudlik bilan to`zatis choralari ko`rishni maqsad qilib qo`ygan bo`lsa, hozirgi ta`lim texnologiyasidagi tashxis har bir o`quvchining rivojlanish darajasini erta aniqlash va bashorat qilishga qaratilgan. Tashxis natijalari bo`yicha har bir qadamdagi jarayon loyihalanaadi.

Shunday qilib, qayta bog`lanish ma`lumotini olish tashxisni bashorat qilish bilan bog`laydigan uzluksiz qurilgan jarayonga aylantira boradi. Bu jarayon inglizchadan tarjima qilganda «uzluksiz kuzatish» ma`nosini bildiradigan monitoring nomini oldi.

Pedagogikada monitoring deganda «...o`quv jarayonini uzluksiz, o`zoq muddatli kuzatish va uni boshqarish» tushuniladi. Pedagogik monitoring o`qituvchi va o`quvchini turli qarorlar chiqarishga imkon beradigan zarur axborot bilan ta`minlaydi. Ushbu holda o`quv-tarbiyaviy jarayonning natijalari va qo`yilgan maqsadga erishish uchun ishlatiladigan vositalar tekshiriladi. Monitoring pedagogik texnologiyaning qanchalik samarali va istiqbolli ekanligini aniqlaydi» (Daxin A.N., 1997).

3. O`zlashtirishnish mahsuldor va izlanuvchan darajalariga mo`ljallangan pedagogik texnologiya

Amerikalik psixologlar R.Gan`e va L.Briggslar (1979) aniq o`quv maqsadlariga erishishga yo`naltirilgan, shu bilan birga, mahsuldor tafakkur darajalariga erishishni rag`batlantiruvchn unsur (element)larni o`z ichiga olgan quyidagi dars qurilmasini taklif qilishdi:

- o`quvchilarning diqqat -e`tiborini tashkil qilish;

- ularni dars maqsadlaridan xabardor qilish;

- zaruriy bilimlarni yodda olib qolish va maxoratlarini rag`batlantirish;

- ma`lum xatti-harakatga undovchi o`quv mavzusini taqdim qilish;

- o`quvchilarning xatti-harakatini rag`batlantirish;

- ta`sirga javoban aks aloqai ta`minlash;

- fikrlash faoliyatiga rahbarlik qilish, olingan bilimlar va maxoratning mustahkam bo`lishini rag`batlantirish;

- o`quvchilar xatti-harakatini baholash.
- Ingliz olimi A.Romishevski quyidagi (variant) nusxani ishlab chiqdi:
- zarur bilimlardan xabardor qilish;
- esda qolganlarni tiklash darajasidagi maxoratni shakllantirish;
- faoliyatni namoyish etish-umuman va tarkibiy qismlar bo`yicha (buni "namoyish etish+tushuntirish" ko`rinishida qo`shib olib borish mumkin);
- soddalashtirilgan sharoitlarda maxoratni oshirish (vazifani sun`iy soddalashtirish, uni bo`laklarga bo`lish);
- mustaqil amaliyotni va o`zluksiz aks aloqani ta`minlash hamda o`quvchining ijobiy natijalarini o`qituvchi tomonidan rag`batlantirish;
- mahsuldor, izlanuvchan davrga o`tish;
- har xil muammoli holatlarni tashkil etish-noan`anaviy, yangi, o`ziga xos masalalarni echish, borliqni o`xshatma modelga solish;
- o`quvchilar o`z faoliyatlarini o`zlari majburiy tarzda tahlil qilishlari, shu jumladan, o`qituvchi (guruh) bilan.

Chet el pedagogika fanida Dj. Kerroll va B.Blumlarning g`oyalari asosida maktabga hamda jamoa-yakkahol o`qitish tizimiga mo`ljallangan to`liq o`zlashtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Amerikalik psixolog F.S.Keller oliy o`quv yurtlari uchun pedagogik texnologiyalarning shaxsiylashtirilgan o`qitish tizimini taklif qildi.

F.S.Keller rejasining o`ziga xos xususiyatlari:

o`quv mavzusining mazmunini to`liq o`zlashtirishga yo`naltirilgan, avvalgi bo`limga qo`yilgan talablarni o`zlashtirishni keyingi bo`limga o`tishning bevosita sharti deb qaraladi;

o`quvchilarning o`zlashtirish sur`atiga mos ravishda yakka hol ishlashlari;

ma`ruzalardan faqat o`quvchilarni undash va umumiy yo`naltirilish maqsadlaridagina foydalanish;

chop etilgan o`quv qo`llanmalarini ishlatish - o`quv axborotini bayon qilinishiga rahbarlik;

o`quv mavzularining o`zlashtirilishini jalb qilingan aspirantlar yoki mavzuni a`lo o`zlashtirgan talabalar ("proktorlar") yordamida joriy baholanishi.

Fan o`qituvchi tomonidan qator mavzu bo`limlariga (modullarga) ajratiladi, qoidaga ko`ra ular 15-20 ta bo`laklardai tashkil topib, eng oddiy hollarda darslikning boblariga mos tushishi mumkin.

Har bir ta`lim oluvchi o`quv qo`llanmasi shaklida izchil yo`l-yo`riq oladi (har qaysi o`rganilayotgan bob yuzasidan), u erda bo`limning maqsadlari ko`rsatiladi, o`quv ishlarining ma`lum turlari tavsiya qilinadi, o`z-o`zini tekshirishlar va nazorat savollari ro`yxati keltiriladi. O`quvchilarga o`quv faoliyatining turlari va ishlash tartibini erkin tanlash imkoni beriladi. O`zlashtirilgan bobu, bo`limni topshirishdan avval har bir o`quvchi "proktor" tomonidan tekshirib chiqiladi, "proktor" bo`limning o`zlashtirilishini o`qituvchi tarafidan avvaldan aniq belgilangan talablarga mos holda (mavzuning to`liq yoki noto`liq o`zlashtirilishiga qarab "o`tdi", "o`tmadi" xilida) baholaydi. Qoniqarsiz baho olinganida "proktor" o`quvchilarga qo`shimcha mavzuni o`zlashtirilishi yuzasidan tavsiyalar beradi. Sinovdan o`tish keyingi bo`limga o`tishga va mos bo`limga qatnashishga ruxsat bo`lib xizmat qiladi. Ma`rualar soni ko`p bo`lmaydi, ularga qatnashish ixtiyoriy.

Kellerning rejasi AQSH oliy o`quv yurtlarida keng tarqaldi, u erda ham tabiiy-ilmii hamda gumanitar-ijtimoiy fanlar o`qitiladi.

70-yillar va 80-yillarning o`rtalarida o`tkazilgan tajriba Keller rejasi asosida o`qitishning an`anaviy o`qitishga nisbatan samarali ekanligini tasdiqladi.

Muammoli-izlanuvchan yondashuv texnologiyasi o`quv faoliyati uchun o`zgacha muhit hosil qilinadi, unda talaba shaxsiy kashfiyot, qonuniyat ochish yo`li bilan borliq

haqida bilim oladi. Bunday sharoitdagi o`quv jarayoni "KASHFIYOT ORQALI O`QITISH" deb nomlanadi.

O`quv jarayonini tashkil etishning texnologik usullari:

- talabalar uchun ahamiyatli bo`lgan qiziq muammoni o`rtaga tashlash;
- ko`rilayotgan vaziyatda (narsada)gi qarama-qarshilikni bo`rttirib, talaba ongiga quyish (ular qarama—qarshilikni o`z muammosi sifatida qabul qilsin);
- ushbu muammodan kelib chiqib ijodiy masalani shakllantirish.

Pedagog va talabalarning hamkorligida nafaqat o`zi uchun yangi bilimlar o`zlashtiriladi, balki bunda talaba o`zgacha kashfiyotlar qiladi. Bunday faoliyat talaba uchun alohida shaxsiy qadriyatga ega va shu sababli uning o`rganish ishtiyoqini orttiradi.

Faoliyatli bilim olishni rivojlantirishning yana bir oqimi "MATNLI O`QITISH TEXNOLOGIYASIDIR". Buning mazmuni shuki, talaba o`quv matndan borliq va o`tmishni o`zlatish vositasi qonuniyatiga mos ravishda foydalanadi.

Turli shakldagi o`quv faoliyati natijasida talabada kasb ko`nikmalari rivojlanadi va u shaxs sifatida kamol topadi.

O`quv jarayonini matnli o`qitish texnologiyasi asosida qurish ta`lim faoliyatini kasbiy faoliyat shakl va usullariga tobora yaqinlashtiradi va asta-sekin mehnat faoliyatiga o`tishni ta`minlaydi.

Matnli o`qitish g`oyasi "ishbilarmon o`yinlarida" (деловые игры) o`z aksini topadi. Barcha o`yinlar kabi ish-bilarmon o`yinlari talabani muayyan vaziyatda ma`lum xatti-harakatni amalga oshirishni taqozo etadi. Talaba o`quv jarayonida bo`lsada, u amaliyotga molik vazifalarni bajaradi: tahlil etadi, ma`lumotlarni tanlaydi, ma`lum vaziyat uchun masalani qo`yadi, masalan, ma`lum ishlab chiqarish korxonasi yoki idora uchun. Bunday o`qitish shubhasiz mahsuldir. U bo`lg`usi mutaxassisning ijodiy rivojlanishini ta`minlaydi.

Hozirgi paytda o`qitishning yangi texnologiyalarining samara-dorligini baholovchi to`rt xil mezonlar ishlab chiqilgan. Birinchi -kontseptual va yangilik mezoni: ta`lim texnologiyasi asosida kon-tseptual jihatdan yangi psixologik, pedagogik va dedaktik g`oya qo`yilishi kerak. Ikkinchisi yaxlitlik va taboqlashganlik mezonlari, unda o`qitish texnologiyasi maqsad, vosita, uslub, tashkiliy shart-sharoitlar majmuasi ko`rinishida yaxlit ta`lim faoliyati va amalga oshirilishini muayyan ta`lim tizimida ta`minlashi zarur.

Uchinchi mezon avvaldan belgilangan maqsadlarga erishishni takrorlanishi va kafolatlanishi bilan bog`liq.

Kafolatlanishi bilan bog`liq.

Bunda ba`zi boshlang`ich shartlarni o`zgarishini (talabalar tayyorgarlik darajasi, pedagog maxorati va boshqalarni) inobatga olgan holda o`qitish jarayonini qayta takrorlash va ko`zlangai maqsadni egallash mumkin.

Nihoyat o`qitishning samaradorligi va sifati mezoni, bunda takrorlanuvchan o`quv jarayoni natijasida aniq ko`zlangan va belgi-langani sifat va samara darajasidan past natija olinadi.

Keltirilganlar pedagogik texnologiyaning cheklanmagan imkoniyatlarini isbotlaydi. O`zbekiston pedagoglarining xorijiy tajribalar bilan tanishuvi egallangan an`ana va madaniy ta`lim darajasini rivojlantirilgan yangi yondoshuvlarini o`zlashtirishiga turtki bo`ladi.

4-jalvalda ta`limga an`anaviy va texnologik yondashuv orasidagi farqlanishlar umumlashtirilgan.

Mashg`ulot o`tkazishga yondashuv variantlari

An`anaviy (tushuntirish – ko`rsatish) yondashuv	Texnologik yondashuv
1. Pedagogning mashg`ulot o`tkazish rejasini ishlab chiqishga bo`lgan munosabati	
qoidaga ko`ra, «majburman», «zarur» tamoyillariga asoslangan rasmiyatchilik.	«hoxlayman», «uddalayman» tamoyiliga asoslangan ijodiyot
2. Pedagogning mashg`ulot rejasini ishlab chiqishdagi faoliyati	
qoidaga ko`ra, e`tibor o`tiladigan (qayta ishlanadigai) o`quv materialini tizimlash va tarkibiy qismlarga ajratishga qaratilgan	qoidaga ko`ra, e`tibor asosan navbatdagi mashg`ulotda o`zining faoliyatini va talaba modeli tasavvurida yaratishga qaratilgan
3. Pedagogning mashg`ulot-rejasini ishlab chiqishdagi ustuvor psixologik faoliyati	
o`quv materialini tahlil qilish va asosiy o`quv savollarini (tayanch tushunchalarini) aniqlash, mashg`ulot rejasini tuzish (ba`zan qo`llash uchun emas, ko`proq hisobot va nazoratchilar uchun)	navbatdagi mashg`ulotda o`z tafakko`rini tasavvur etish (refleksiya) va talaba o`rnida fikrlash (empatiya), o`qish jarayonini rivojlanish yo`nalishini oldindan ko`ra bilish va o`qishdan ko`zlangan ehtimoliy natijani oldindan tasavvur etish
4. Dars rejasi iimani aks ettiradi?	
talabalarga beriladigan axborotni	pedagog va talabalarining dars jarayonidagi faoliyati stsenariysini
5. Mashg`ulot maqsadining ifodalanishi	
<ul style="list-style-type: none"> • pedagog beradigan axborot mazmuni; • maqsad aniq belgilanmagan, masalan: rivojlantirish, tushuntirish 	<ul style="list-style-type: none"> • talabalarining mashg`ulot oxiridagi faoliyatini aniq belgilanadi; • mashg`ulot maqsadi uning oxirida talaba xatti-harakatini aniq belgilovchi fe`llarda ifodalanadi, masalan, sanaydi, tanlaydi, hisoblaydi, qo`llaydi
6. Pedagog tomonidan o`rgatuvchi usullarning tanlanishi	
qoidaga ko`ra, oldin shakllanib qolgan odatlar bo`yicha harakat qiladi	yangi, o`rgatuvchi usullarning juda ko`p turlari, erkii fikrlash imkoniyati
7. Talabani o`qitish	
bu o`qituvchining vazifasi	bu, eng avvalo, talabani o`qitish
8. Talabalarining o`quv maqsadlariga bo`lgan ijobiy munosabati.	
vujudga kelmasligi ham mumkin	asa-sekin shakllanadi, bu o`qituvchining asosiy maqsadi bo`lib hisoblanadi
9. Dars berishdagi mo`ljil	
talabalarining o`qituvchi bergan axborotlarini eslab qolishi	talabalarda aniq qattiq harakatlarni bajarish masalasini rivojlantirish
10. O`qituvchi tomonidan talabani yo`naltirib borish	
dalillar, qoidalar, tamoyillar va qonunlarni eslab qolishning muhimligi va to`plangan tajribani o`zlashtirish ta`kidlanadi	o`qishga o`rganish, ijodiy fikrlash, zarur axborotni topish va baholab qaror qabul qilish masalalarini shakllantirish mumkinligi ta`kidlanadi
11. Mashg`ulotdagi faollik	
o`qituvchi faol shaxs (faoliyat sub`ekti), talaba esa odatdagi sust va boshqarish ob`ekti bo`lib hisoblanadi	o`qituvchi ham, talaba ham faol ishtirokchi bo`lib hisoblanadilar; faoliyat sub`ekt-sub`ekt tasnifiga ega bo`ladi, yaxlit pedagogik vaziyat boshqaruv ob`ekti bo`lib hisoblanadi
12. Talabalar faoliyatining turlari	
odatdagidek, takrorlanuvchan - ijodiy emas	takrorlanuvchan, reproduktiv sa-maradorlik, ijodiy fikrlashni rivojlantirish
13. Talabani aql-zakovatga oid ixcham tafakko`rini shakllantirish	
ko`p holatlarda siqiq qotib qolgan (rigid)	tafakko`rning variantligi, bir fikrlash turidan ikkinchisiga o`tishning osonligi
14. Talabalar bilan qaytuvchan aloqani o`rnatilishi	
onda-sonda, ba`zan yoki o`rnatilmaydi	tizimni boshqaruvchan turiga ega
15. Hissiy ko`tarinqilk, o`qituvchining kayfiyati	
ba`zan sezgilar takrorlanadi, har doim ham o`z ishiga qiziqmaydi, buning oqibatida asabiylik, talabalarda xushmuomalalikning etishmasligi kelib chiqadi	ko`tarinki ruh, talabalarga xush muomala bo`lish o`zini ro`yobga chiqarishdan mamnuniyat hosil qilish
16. Texnologiyaning harakteri	
Eskirgan, qo`l mehnat talab qilinadigan samarasiz	YAngi pedagog talaba faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan

17. O`qishning asosiy natijalari

faoliyat namunalarini o`zlashtirish va ma`lum dalillardan bo`lgan o`quv materiallarni xotirada saqlash	axborotni izlab topish va faoliyat namunalarini mustaqil o`zlashtirishga tayyorgarlik, shuningdek o`zlashtirilgan materiallar doirasidan chetga chiqish
--	---

4. O`zbekistonda ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyaning muqobili

Uning o`ziga xos xususiyati test vazifalarini ishlab chiqish va maqsadga erishishda zarur bo`ladigan kerakli qo`shimcha vositalarni ishlab chiqarishga tatbiq qilishdir. Buarni o`rganib chiqish uchun muqobilli, o`xshash amaliyot va bilimni mustahkamlashning tabaqalashtirilgan qoidalariga qaytamiz.

Muqobilli amaliyot qoidasi pedagogning faoliyatiga yo`naltirilgan. U qoida pedagogdan o`quv jarayonini hamma o`quvchilarning rejalashtirilgan o`quv natijalarga kafolatlangan holda erishishni talab qiladi.

Buning uchun pedagog o`quv maqsadlariga to`la mos keluvchi mavzularni puxta tanlab olishi zarur. Gap shundaki, har bir fan sohalari bo`yicha hozirgi kungacha katta hajmdagi ilmiy ma`lumotlar zahirasi hosil qilingan. Pedagogning ma`lum bir mavzu uchun mumkin qadar ko`proq ilmiy axborotlarni kiritishi talabalarning bilimlarni samarasiz, yuzaki qabu qilishga olib keladi. SHu bois, har bir mavzu bo`yicha o`quv maqsadiga mos keluvchi tayanch o`quv savolini aniqlash va diqqat markazini ana shu savolni hal etishga qaratish zarur.

Bu talablarni amalda bajarish uchun o`qituvchining ixtiyorida trening mashg`ulot o`tkazish va o`quv mavzusini mustahkamlash vositalariga ega bo`lishi foydali bo`ladi. Informatika, matematika, fizika, ximiya fanlaridan bunday vositalar so`roqnomalar, masalalar to`plamlarida berilgan, boshqa fanlardan ham nazorat va o`z-o`zini tekshirishga mo`ljallangan savollar mavjud.

Aniqlanishicha, bir xil o`quv savoli bo`yicha an`anaviy so`rovlar va test savollari taklif etilsa, o`quvchilar ko`p hollarda test savoliga ishtiyoq bildirishadi. Buning sababi test savollari uchun javoblarning taklif etilishi va ularning ichida albatta to`g`ri javobning borligi o`quvchida topqirlik hissini uyg`otadi. SHuningdek, test savollari topishmoq va o`yinga o`xshash bo`lganligi bois, ular nafaqat xotirani, balki ichki sezgi va muloqotni ham rivojlantiradi. Test savollari o`quvchilarda mustaqil ishlashni rivojlantirishi tajribalarda tasdiqlangan.

O`xshash amaliyot qoidasi o`quvchiga yo`naltirilgan bo`lib, undan o`qib o`rganayotgan savollari yuzasidan muntazam ravishda shug`ullanib borishni taqozo etadi.

Ma`lumki, muntazam ravishda shug`ullanish imkoniyatiga ega bo`lgan sportchigina yaxshi natijalarga erisha oladi. Suzuvchi suzish havzasiga, tennischi kort maydonchasiga, gimnastikachi snaryadlarga ega bo`lmog`i shart. Talaba ham muntazam shug`ullanish vositalariga ega bo`lmog`i kerak, u vositalarning o`zida ham talabani ruhlantiruvchi-rag`batlantiruvchi jihatlar bo`lsin.

Bilimni har tomonlama mustahkamlashning asosiy tamoyili o`qitishning har bir qadamida umumlashtirilganlarni ko`p marotaba har xil aloqalar va munosabatlarda iloji boricha murakkabligi tobora ortib boruvchi misollar asosida takrorlashni talab etadi.

O`zbekistonda teng qiymatli (ekvivalent) va o`xshash amaliyot qoidalari va bilimlarni (muttasil) har tomonlama mustahkamlash tamoyillarini amalga oshirishni ta`minlovni test vositalarini ishlab chiqish nazariyasi va metodikasi yaratilgan.

Eslatib o'tilganidek, pedagogik texnologiyaning asosiy qoidasi o'qitishni harakatlar orqali amalga oshirilishidir. Talabalarning o'quv axborotini nafaqat bilib olishlari va esda saqlab qolishlarini, balki bilish jarayonida faol ishtirok etishlarini qanday qilib ta'minlash mumkin?

K.G.Markvardning fikricha, "O'qitish davrining boshidan oxirigacha navbatdagi "to'siqni" engib, maqsadga erishish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni to'plashga qaratilgan fikrlar va tafakkur mashqlari o'tkazilib borishi zarur. Ana shunday faoliyat davomida ijodkor shaxs shakllanadi".

Talabalarning bilim egallash yo'lidagi bunday "to'siqlar" sifatida invariantli test topshiriqlari va testlardan foydalanish mumkin.

Ushbu mulohazada "invariantlilik" tushunchasi o'quv mavzusining qismini o'rganish maqsadiga nisbatan qaralgan. "Tasvirning invariantliliigi" deganda uning tashkil etuvchi shakllarining turli bo'lishidan qat'iy nazar, o'zgarmasdan qolishi tushunilishi ma'lum. Mashhur nazariyotchi fizik E.Vignerning ta'kidlashicha, "invariantlilik tamoyili hodisalar orasidagi aniqlangan munosabatlar asosida yangi munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi" (Kondakov N. Logicheskiy slovar'-spravochnik, 1975).

"Invariantli test vazifasi" - invariantli test vazifalari nazariyasining tayanch atamasidir. Aynan bir o'quv mavzusini o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan turli ko'rinishdagi "invariantli test vazifalari" tushunchasini kiritdik. Aslida "muayyan o'quv mavzusini o'zlashtirish maqsadiga nisbatan invariant bo'lgan test topshiriqlari" deb atalishi aniqroq bo'lar edi, lekin qisqa ifoda uchun "invariantli test vazifasi" kabi uch so'zli atama qabul qilindi. Invariantlik test vazifalari bir-biridan so'z ishlatishning turli shakllari, morfologik, sintaktik, semantik belgilari bilan farqlansada, doimo o'quv mavzusini o'zlashtirish va o'quv maqsadiga erishganlikni nazorat etuvchi umumiy andozaga (modelga) ega bo'ladi.

Invariant test nazariyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-o'quv mavzusini test vazifalariga aylantirishning mazmuniga qo'yiladigan o'ziga xos didaktik talablar;

-bir xil o'quv mavzusining mazmuni, aloqalari va munosabatlarini o'zlashtirish nazoratining dasturlashtirilgan shaklini aks ettirgan test vazifalari modellari. Ular test vazifalarini tuzishda ma'lumot manbai vazifasini o'taydi;

-invariant testlar ishlab chiqish uchun ma'lumotlar zahirasi bo'lib xizmat qiluvchi yangi turdosh test vazifalari. Ular 22 ta tashkiliy asosga va 137 turdosh xususiyatlarga ega;

-umumiy mazmuni saqlab qolgan holda o'zaro farqlanuvchi talqinni ifodalovchi test vazifalarini shakllantirish metodikasi (grammatik va mantiqiy invariantlar). Ular turli aloqa va munosabatlar orqali o'quv mavzusini o'zlashtirish darajasini nazorat qilish imkonini beradi;

-algoritmash va komp'yuterlash imkonini beruvchi invariant test vazifalarini yaratishning boshqa usullari.

Ko'p variantli test vazifalarini pedagogik texnologiya doirasida ham o'qitish, ham nazorat qilish sifatida qo'llash samaradorligi tajribada isbotlangan.

5. Pedagogik texnologiya asosida darsning uslubiy qo'llanmasini va texnologik kartasini tuzish

Ayrim pedagoglar pedagogik texnologiya asosida o'qitishning hammabop (universal) andozasini yaratish istagini bildirmoqdalar. Buni amalga oshirsa bo'ladimi?

G.Noybort va YU.K.Babanskiy (1984) shunday deydilar: "Barcha andozachilikdan ehtiyot bo'lish zarur, masalan, har gal bir xil ketma-ketlikda, jiddiy chegara doirasida dars vazifasini echishdan" RAO akademigi M.Potashnikning (1997), fikricha "Rejaga shakl, hajm, mazmun jihatidan hech qanday umumiy talab bo'lishi mumkin emas, chunki bu ijodiy faoliyatdir, ...qat'iy xuquqiy, me'yoriy nuqtai nazardan ... reja bo'lmasligi mumkin..., darslar bo'yicha ishlanmalar, masalalar to'plami va shu kabilar. Bu nuqtai nazardan reja o'qituvchining vijdoniga havola".

Tajriba sinovini o'tkazuvchi pedagog A.Lobok shunday deydi: barcha biladi, eng mashhur o'qituvchilar har doim "rejaga muvofiq" ish ko'ravermaydilar; hozirgi zamon pedagogi ham yurakdai suhbatlashgan paytda "ko'rqinchlidir"ni ochib ko'yadi: ma'lum bo'lishiga eng samarali o'quv jarayoni odatda o'qituvchi rejadani va metodik tavsiyalardan chetlashgan paytda amalga oshadi. Chetlanishi qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik ilhom qanoti keng yoyilib, natijalar sezilarliroq bo'ladi.

Shunga qaramasdan dars rejasi zarur. Chunki pedagogning eng asosiy maqsadi o'quvchilarning idrok faoliyatini boshqarishdir. Agar pedagog kasb maxoratiga ega bo'lmoqchi bo'lsa, ta'lim - bu doimo boshqaruv ekanligini va boshqaruv rsjalaigirishsiz bo'lmasligini tushunishi kerak. Rejasiga dars davomida to'zatislar kiritishi mumkin, zarurat tug'ilgan hollarda uidan voz kechishi va yangi g'oya bo'yicha ish tutishi mumkin. Lekin, yaxshi pedagoglar mushohada qilish, modellash, maqbul echimni topish, ya'ni rejalashdan qaytmaydilar.

I.P.Podlasiy (1999) shunday deydi: Bugungi kunda o'qituvchi dars tarkibini erkin tanlashi mumkin. Ushbu yangilikning muhimligini, darslarning rasmiy bosqichlariga amal qilish bo'yicha sobiq talablar bilan o'quv mashg'ulotlarini erkin shakllantirish bo'yicha hozirgi g'oyalarni taqqoslash orqali anglash mumkin. Loyihalash (rejalashtirish) - bu darsga tayyorgarlikning so'nggi bosqichi, u o'quvchilar idrok qilish faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bilan yakunlanadi. Boshqarish dasturi - bu ixtiyoriy to'zilgan hujjat bo'lib, unda pedagog boshqarishning muhim bandlarini belgilaydi: kimdan va qachon so'rash, muammoni qaerda kiritish, keyingi bosqichga qachon o'tish, taxmin qilingan qiyinchilik tug'ilganda jarayon qay ko'rinishda tashkil etish va shu kabilar.

Faoliyatni yangi boshlagan pedagog uchun rejani batafsilroq tuzish zarur. Ushbu talab amaliyotdan kelib chiqqan: bo'lg'usi darsning tashkil etilishi masalalarini mushohada qilmay turib hech kim maxorat sohibi bo'lgan emas. Qachonki asosiy tarkib odat tusiga kirsagina, soddalashtirilgan yozuvga; o'tish asta - sekin qisqartirilgan rejaga o'tib, uii muayyan harakat dasturiga aylantirish mumkin.

Boshlovchi pedagog o'z rejasida quyidagilarni qayd etishi ma'qul:

- dars o'tish kuni va uning mavzu rejasidagi tartib raqami;
- dars mavzusining nomi, dars o'tish sinfining nomi;
- o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish maqsad va vazifalari;
- darsning tarkibi va uning bosqichlari ketma-ketligi, darslararo vaqt taqsimoti;
- o'quv mavzusining mazmuni;
- darsning har bo'lagida o'qituvchining ish uslubi va usullari;
- dars o'tish uchun o'quv anjomlari;
- uyga vazifa;

Pedagogik texnologiya asosidagi muayyan darsning loyihasini tuzish ketma-ketlik quyidagicha tavsiya qilinadi:

- o'quv predmetining ishchi dasturida asosan o'qituvchining o'quv va tarbiya maqsadlarini shakllantirish;

- tayanch o`quv savollarini bloklarga ajratish (2 soatlik darsga 2-5 ta);

-har bir o`quv savoli bo`yicha o`quvchilarning vazifalarini shakllantirish, unda quyidagilar ifodalanadi:

1) O`quvchi maqsadga erishgandan so`ng qiladigan xatti-harakati bilan tasvirlanuvchi fe`li orqali o`xshash o`quv maqsadi shaklida yoki

2) B.Blum taksanomiyasi o`quv maqsadlarining asosiy tushunchalari (bilish, tushunish, qo`llash, tahlil qilish, majmualash, baholash) shaklida;

- har bir vazifa bo`yicha shug`ullanish va mashqlar uchun o`quv materialini mustahkamlashni ta`minlovchi vazifalar (savollar, masalalar, test topshiriqlari) tuzish (odatda baholanmaydi);

- har bir tayanch o`quv mavzusi bo`yicha tarkibida og`zaki, yozma, test savollari bo`lgai yakuniy nazorat topshiriqlari majmuini tuzish, ushbu majmua mavzularni mahsuldor va namoyish darajasida o`zlashtirilganligini baholay olishi zarur;

- ko`zlangan maqsadga kafolatli erishuvni ta`minlovchi ishchi dasturni, o`qituvchi va o`quvchi maqsadi hamda nazorat savollariga mos ravishda dars mazmunini ishlab chiqish;

- o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatining uzviyligini ta`minlagan holda darsniig borishini loyihalash (asosiy joylarini).

Quyida pedagogik texnologiya asosida o`tkaziladigai dars uchun uslubiy ishlanma ko`rinishi keltirilgan. Dastlab uslubiy ishlanmani ko`rib chiqamiz.

Pedagoglarni malakasini oshirish tizimida "Informatika" fanidan "MS Word matn protsessori" mavzusida amaliy dars (4 soat) o`tish uchun metodik ishlanma variantining parchasi.